

“ALPOMISH” DOSTONINING YETAKCHI VARIANTLARI ORASIDA JANUBIY O’ZBEKISTON VARIANTLARINING O’RNI

Rahmatova Mohinabonu Rajabovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1392499>

Annotatsiya. Maqolada “Alpomish” dostonining yetakchi variantlari orasida Janubiy O’zbekiston variantlarining o’rni va o’rganilishi jihatidan o’ziga xos tomonlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: “Alpomish” dostoni, yetakchi variantlar, Janubiy O’zbekiston variantlari, Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboyev.

THE PLACE OF SOUTH UZBEKISTAN OPTIONS AMONG THE LEADING OPTIONS OF THE EPIC "ALPOMISH"

Abstract. The article highlights the place of South Uzbekistan variants among the leading versions of the "Alpomish" saga and their specific aspects in terms of study.

Key words: "Alpomish" saga, leading variants, Southern Uzbekistan variants, son of Mardonaqul Avliyoqul, Bekmurod Zhoraboyev.

МЕСТО ЮЖНОУЗБЕКИСТАНСКИХ ВАРИАНТОВ СРЕДИ ВЕДУЩИХ ВАРИАНТОВ ЭПОСА «АЛПОМЫШ»

Аннотация. В статье освещается место южноузбекских вариантов среди ведущих вариантов эпоса «Алпомиши» и их особенности в плане изучения.

Ключевые слова: сага «Алпомиши», ведущие варианты, южноузбекские варианты, сын Марданакула Авлиёкул, Бекмурод Жорабоев.

KIRISH

Xalq og‘zaki ijodi boy manbaga ega bo‘lgan milliy va ma’naviy merosimizdir. Uning har bir satrida xalqimizning asriy an’analari o‘z aksini topgan. Xalq orasida mashhur bo‘lgan har bir dostonning ham o‘ziga xos ijro uslubi borki, har bir hududda o‘ziga xoslikni kashf etadi. “Alpomish” dostoni ana shunday dostonlardan biridir. XX asrdan boshlab yetakchi dostonchilar uni yozib ola boshlashgan. Janubiy O’zbekiston variantlari yozib olinishi XX asrning 40-yillariga to‘g‘ri keladi. 1945-yilda Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani Chig‘atoy qishlog‘ida yashovchi Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li og‘zidan Q.Muhammedov va Hodi Zaripovlar yangi variantini yozib olishadi.

Rus sharqshunosi A.Borovkov ham turkiy xalqlar o‘rtasida keng tarqalgan “Alpomish” dostonini o‘rganish va to‘plash tarixini, har bir versiyada o‘sha xalqning milliy an’analari o‘z ifodasini topganini o‘zbek, qoraqalpoq va qozoq versiyalari asosida yaxshi dalillar bilan tahlil qiladi. U Alpomishning do‘srtlari Qultoy, Qorajon va raqibi Ulton obrazlaridagi qarama-

qarshiliklarni tahlil qilib, ikki bo‘limdan iborat bo‘lgan bu asarning har bir qismi turli davrlarda yaratilganva har biri mustaqil ayтиб kelingan, – degan xulosaga keladi.²⁰ Dostonni XII-XIV asrlarda “qipchoq-turkiy” xalqlari orasida Dashti Qipchoqda paydo bo‘lgan va tarqalgan, deb qaraydi. Jirmunskiy esa XVI asrda ko‘chmanchi o‘zbeklar Alpomish haqidagi rivoyatni Janubiy O‘zbekistonga olib keladilar va u yerda – Boysun bekligida qadimiy bahodirlik qo‘srig‘i yoki ertagi asosida qahramonlik eposi “Alpomish” (qo‘ng‘irot versiyasi) yaratilgan hamda bu yerdan o‘zbek, qoraqalpoq va qozoqlar o‘rtasida keng tarqalgan, degan fikrni ilgari suradi. Hodi Zarif esa qator dalillar asosida “Alpomish” dostoni patriarxal-urug‘chilik munosabatlari yemirila boshlagan bir sharoitda mo‘g‘ullar istilosidan avval Sirdaryo va Orolbo‘yi atrofida yashagan chorvador qo‘ng‘irot qabilasi ichida yaratilgan, degan fikrni ilgari suradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bundan tashqari H.Sulaymonov, M.Shayxzoda, M.Boganova, L.Penkovskiy, O.Balitova, I.Puxov, N.Smirnova, I.Sag‘itov, A.Kiriyev, va boshqalar “Alpomish” dostoni haqida qimmatli fikrlar bildirdilar. Keyinchalik yana turli hududlardan “Alpomish” dostonining yangi variantlari yozib olindi. Jumladan, Janubiy O‘zbekiston hududidan Muhammadrahimxo‘ja Muhammadsodiq o‘g‘li varianti (Surxondaryo viloyati, Jarqo‘rg‘on tumani, Jaloyir qishlog‘i, yozib oluvchi M.Afzalov), Tosh Chorshanba varianti (Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani) yozib olinadi. Mustaqillik yillariga kelib doston aytish va yozib olish ishlari yanada rivolandi. Jumladan, Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida yashovchi O‘zbekiston xalq baxshisi Abdunazar Poyonov varianti 2013-yilning fevral-may oylarida Toshkent shahrida Jabbor Eshonqulov tomonidan yozib olingan. Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li varianti ham Janubiy O‘zbekiston variantlari orasida o‘ziga xos o‘ringa ega. Bu bo‘yicha mukammal tadqiqot olib borilmagan. Bundan tashqari, Abdulla Nurali o‘g‘li, Hamro Ergash o‘g‘li, Zohir Qo‘chqoov, Umir Safarov, Muhammadrahimxo‘ja Muhammadsodiq o‘g‘li, Tosh Chorshanba, Abdunazar Poyonov variantlari ham Janubiy O‘zbekiston hududi uchun keng ahamiyatga ega bo‘lgan variantlardan hisoblanadi. Bugungi kunda “Alpomish” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti ko‘p o‘rganilgan, ammo boshqa, xususan, Janubiy O‘zbekiston variantlari keng ilmiy planda yetarlicha tadqiq qilinmagan. Janubiy O‘zbekiston variantlarining ba’zilari bugungi kunda kitob holida nashr qilinib, o‘quvchilar ommasiga taqdim etilgan. Bular Umir baxshi (Umir Safar o‘g‘li 1894 – 1966), Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li (1886 – 1966) hamda Abdunazar Poyonov (1954)larning variantlaridir. Har uchala variant ham O‘zbekiston Respublikifikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivida saqlanadi.

Ushbu arxivda 1254-inventar raqami ostida saqlanayotgan dastlabki variant Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanida yashagan baxshi Umir Safarovdan 1958-yil 28-iyunda yozib

olingan. Yozib oluvchi folklorshunos Oxunjon Sobirov.

XULOSA

Qo‘lyozma krill alifbosida bo‘lib, 160 sahifasigacha A4 formatdagi qog‘ozga, 162 – 382 sahifagacha bo‘lgan qismi esa oddiy daftarga yozib olingan. Dostondagi jami she’riy misra 6012 qatorni tashkil etadi, nasriy qismi esa 6435 qatordan iborat. Har bir variantda o‘z hududi bilan bog‘liq uslub, sheva, detallar uning ohangdorligini ta‘minlaydi. Janubiy O‘zbekiston azaldan baxshilarning ko‘pligi va xalq og‘zaki ijodi namunalarining xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Bundan keyin ham bu borada chuqur tadqiqotlar zarurligi, bu hududda xalq merosi naqadar chuqur ildiz otganligidan darak beradi. Yuqorida nomlari sanab o‘tilgan versiyalar ayni paytda nisbiyidir. Chunki hali o‘rganilmagan tadqiqot ishlari talaygina. Ularni har birini teran tahlil qilish bugungi kun folklorshunosolimlar oldida turgan vazifalardan biridir.

REFERENCES

1. Шукуров.Н.Мирзаев.С. Дониёров. X. “Алпомиш” достони ҳақида,“Шарқ юлдузи” 2-сон, Тошкент.
2. Мирзаев. Т. “Алпомиш” достонининг ўзбек вариантлари.. ФАН, 1968.
3. Ўзбек фолклори, тузувчи Ҳоди Зариф, Тошкент.: Ўқувпеддавнашр,1939.